
Yosh avlodning ertangi kuni uchun barchamiz mas'ulmiz

Qo'shtepa tumani hokimligi Madaniyat bo'limi Madaniyat markazi tomonidan "Eshonguzar" MFY hududida joylashgan 49-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Shu aziz Vatan - barchamizniki" mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirni 49-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa fani o'qituvchisi Shukrullo Akbarov ochib berdi.



~~Tadbir davomida ma'ruzachilar o'z nutqida diniy ekstremizmning yoshlar ongiga ta'siri va uning qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi haqida to'xtalib, uning ta'siriga tushib qolmaslikka va ogohlikka chorladilar.~~

Shundan so'ng Istiqlol Madaniyat markazi qoshida tashkil etilgan Qo'g'irchoq teatri rahbari Abduqaxxor Normatov hamda to'garak a'zolari tomonidan "Bo'g'irsoq" ertagi namoyish etildi.





Shuningdek, honandalar Sayidvali Azimov va 15-sonli BMSM An'anaviy honandachilik bo'limi o'quvchisi Lazizbek Ma'murovlar tomonidan ijro etilgan Vatanni madh etuvchi qo'shiqlar maktab o'quvchilariga birdek manzur bo'ldi.



Lazizxon SAIDOV,

Qo'shtepa tumani Madaniyat bo'limi bosh mutaxassisi

2019-11-06 15:42:16